




RESPUBLIKAMIZDAGI YURIDIK TEXNIKUMLARNING FAOLIYATI XORAZM VILOYATI YURIDIK TEXNIKUMI MISOLIDA



Xolniyozova Munira Tillaboy qizi

Xorazm viloyati yuridik texnikumi

"Sud-huquqiy faoliyati" yo'nalishi 2-bosqich o'quvchisi

xolniyozovamunira@gmail.com

Tel: +998914348514

Gulmatova Nilufar Vyacheslav qizi

Xorazm viloyati yuridik texnikumi

"Yuridik xizmat" yo'nalishi

1-bosqich o'quvchisi

Attova Niyozjon Atabay qizi

"Yuridik xizmat" yo'nalishi 2-bosqich o'quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yuridik texnikumlarga qaratilayotgan e'tibor va Xorazm viloyati yuridik texnikumida olib borilayotgan o'quv islohotlari to'g'risida.

Kalit so'zlar: yuridik ta'lif, huquq sohasi, huquqiy madaniyat, advokatura, prokuratura, huquqiy masalalar, huquqiy mexanizm.

Barchamizga ma'lumki, huquqiy demokratik davlat qurishimiz hamda erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizda bevosita yuridik ta'lif va fan asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar ham fuqarolar o'zlarining haq- huquqlarini bilishlari uchun shart-sharoitlar yaratilayotganining yaqqol dalilidir. Ijtimoiy hayotimizda uchrayotgan huquqiy masalalarga qonuniy yechim topishni o'rganishning bir necha strategiyalari ishlab chiqilishi, shuningdek, yuridik ta'lif va fanni tubdan takomillashtirish yo'lida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari fuqarolik jamiyatida sifatli va adolatli yuridik xizmatni olg'a surilayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga yurtimizda yuridik universitetlar bilan bir qatorda yuridik texnikumlarning faoliyat olib borayotganligi aholining huquqiy madaniyat va ongini yuksaltirishda ustuvor vazifa bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lif va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmonining, "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlariga qabul qilish tartibi to'g'risida" gi nizomning qabul qilinishi orqali Adliya vazirligi yuridik texnikumlarining faoliyatida ham tubdan o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Xususan, Xorazm viloyati yuridik texnikumida ham ilmiy-pedagogik faoliyati darajasi va sifatini oshirish bo'yicha, o'qitish sifati bo'yicha xalqaro mezon va standartlarga muvofiq yuqori ko'rsatkichlarga erishish hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga zamin yaratish bo'yicha bir necha ishlar olib borildi. Xorazm viloyati yuridik texnikumini tugatgan o'quvchilarning boshqa texnikumlar bilan bir qatorda, bir necha universitetlarga imtihonsiz suhbat asosida



qabul qilinishi o'quvchilarning bilim olishga qiziqishi va ishtiyoqini yanada oshirishga yordam beradi. Shu vaqtgacha Xorazm viloyati yuridik texnikumini namunali baholarga tugatgan o'quvchilarning nufuzli universitetlar, binobarin, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent davlat jahon iqtisodiyoti va diplomatiya Universiteti, Belarus Respublikasi Yanka Kupala nomidagi Grodno davlat Universiteti, M. Narikbaev nomidagi Qozog'iston gumanitar yuridik universiteti va boshqa universitetlarga qabul qilinishi Xorazm viloyati yuridik texnikumida o'quv jarayonlarining, fan va ta'larning naqadar muhim pog'onada turganligidan dalolat beradi. Qolaversa, texnikumda o'tkazilayotgan bayram, tadbir, bellashuv, olimpiadalarning tashkillashtirilishi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli va foydali vazifalar yo'lida sarflayotganlarining boshlang'ichidir. Texnikumda tez-tez "Zakovat", "Eng faol kitobxon", "Namunaviy sud protsessi" kabi o'yin va bellashuvlar o'tkaziladi, joylarda konferensiyalar, tadbirlar va seminarlarga o'quvchilar jalb qilinadi, dars jarayonlarida fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma'muriy sudlarning sudyalari, advokat, prokuratura xodimlarining ishtirot etishi o'quvchilarga ham nazariy ham amaliy bilim olishlarida yordam beradi. Amaliy dars mashg'ulotlarida sud, prokuratura, advokatura va shunga o'xshash davlat organlariga borib ish o'rganish orqali texnikum o'quvchilari o'zlariga kerakli bo'lgan savol va muammolarga yechim topishadi.

Dars jarayonlarining har doim ochiq va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan holda o'tkazilishini alohida ta'kidkash joiz. Chunki har bir bilim olayotgan o'quvchining dars mashg'ulotlarini qunt bilan tinglashi va o'rganishi malakali kadr bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurtimizda yuridik texnikumlarning joriy etilishi huquqshunoslarning mantiqiy fikrlashini yanada oshirishda hamda yuridik ta'limga yangi bosqichga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 30-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5987 sonli farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomi